

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№6

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 532 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-iyunda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni shakllantirishda xitoy va rossiya investitsiyalarining qiyosiy tahlili.....	20
Malikov Numonjon Kamalovich	
Raqamli texnologiyalarning makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri	26
Sherzod Rajabov, Istora Abdusalomova	
Reducing inequality through human capital development: a comparative analysis of policies in the european union and uzbekistan	30
Ilxomjonov Jaxongir Alisher o'g'li	
Hududiy raqamli infratuzilmaning xizmat ko'rsatish sektoriga ta'siri: samarqand viloyati misolida	39
Musinov Dilshod Sultanovich	
Ways to improve quality in hotels through digital technologies	44
N.A. Rakhmonova	
Проблемы и пути внедрения механизма налогового стимулирования центров инновационного роста нового узбекистана.....	48
Умаров Б. С.	
Влияние протекционистской политики на инвестиционные стратегии промышленных предприятий.....	55
Ёдгоров Сардорбек Самадович	
Fiskal siyosat tahlili: aholi bandligi; aholi daromadlari; soliqqa tortish.....	61
Isroilov Boxodir Ibragimovich, Navruzova Farog'at Abdihamid qizi	
Problems in entrepreneurial potential development: a comprehensive analysis of contemporary barriers and challenges	67
Baxtiyor Xabibullayev Abdulvoxid o'g'li	
Tijorat banklarida aholi omonatlarining jozibadorligini oshirishning metodologik asoslari va amaliy yo'nalishlari	73
Xakimov Zoxid Norbo'tayevich	
To'lov aylanmasining mohiyatini aniqlashda to'lov va to'lov oqimlarining roli.....	78
I.F.Sayfiddinov	
Moliyaviy inklyuzivlikni ta'minlovchi samarali soliq siyosati.....	83
Artikov Ne'matulla Abdusalamovich	
Youth, digital finance, and the gig economy in uzbekistan	86
Akmal Boymurodov	
Aktsiyadorlik jamiyatlari korporativ boshqaruvda qaror qabul qilishda raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalari	91
Xabibullaeva Shirinxon Tohir qizi	
В условиях трансформации обеспечение развитие образования и нуки в сфере подготовки управленческих кадров	98
Суюнов Дилмурод Холмурадович	
Ипотечное кредитование как инструмент социальной политики в узбекистане	104
Базарова Нигора Равшановна	
Kichik biznes subyektlari tomonidan hudud aholisi bandligini ta'minlashning ijtimoiy va iqtisodiy natijalari.....	110
Ergasheva Nigora Abdigapparovna	
Kichik korxonalar istiqbolli hududlarda sanoat ishlab chiqarish holati dinamikasi.....	114
Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li	
Banklarning aktivlarini daromadliligini oshirish yo'llari	118
Elbusinova Umida Khamidullaevna	



Ekologik omillar o'zgarishining dehqon xo'jaliklari yalpi hosiliga ta'siri	123
Otamurodova Dildora Abdukrimovna	
O'zbekiston tijorat banklarining yashil iqtisodiyotdagi o'rni	128
Eshev Furqat A'zamovich, Ibragimova Feruza Axtamovna, Jumanazarova Malika Baxtiyorovna, Raxmatova Mohina Dilmurod qizi	
Использование интеллектуальных технологий в процессе обслуживания клиентов банка	132
Хашимова Дилёра Пахритдиновна	
Innovatsion faoliyatning moliyaviy rag'batlantirish va boshqaruv samaradorligini belgilovchi omil va jihatlari	138
Baxriddinov Nodirbek Zamirdinovich	
Import tovarlari bo'yicha aksiz solig'ini undirishning nazariy asoslari	143
Abdurasulov Murodjon Bahrom o'g'li	
Роль цифровых валют центральных банков в модернизации платёжной инфраструктуры: мировой опыт и перспективы Узбекистана	150
Срожиддинова З.Х., Тухтасинова Д.Н.	
Tijorat banklarida chakana to'lov tizimlarini nazariy asosi	155
Sultonov Davronjon Rustam o'g'li	
Tikuv-trikotaj korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirishda strategik menejmentning roli	161
Mamatraimov Islom Mamanazarovich	
Ta'lim, ekologiya va raqamlashtirish sohalarida bolalar va o'smirlar turizmini integratsiyalash: xalqaro tajribalar va O'zbekiston	170
Islomova Dilrabo Salomovna	
Iqtisodiy masalalarni matritsalar nazariyasi asosida modellashtirish va python dasturlash tilida yechish	175
Tojiyev Ilhom Ibraimovich, To'rayeva Feruza Dilmurodovna, Namozova Barchinoy G'ayrat qizi, Baxronova Zuhra Otaniyoz qizi	
Pul bozori barqarorligini ta'minlashda tijorat banklarida likvidlikni boshqarish samaradorligi	188
Sattorova Nasiba G'aniyoz qizi	
The role of digitalization of healthcare in the implementation of the safe city project	192
Akbarjon Iminov	
Аутоиммунные поражения центральной нервной системы, возникающие после стрептококковой инфекции	198
Умарова Саодат Сулаймоновна, Нормакматов Бахтиёр Ботиралиевич	
Iqtisodiyotiga yo'naltirilgan investiyalar tahlili	204
Namozov Olim Botirovich	
Creating a favorable climate for investment in agriculture	209
U.I.Djumaniyazov, B.J.Mirzaev	
Davlat ishtirokidagi korxonalarni korporativ boshqaruvni xalqaro standartlari asosida takomillashtirish	214
F.Djalilov	
Davlat tibbiyot tashkilotlarida ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy su'g'urta qilish xarajatlarini hisobi	222
Kuliboyev Azamat Shonazarovich	
O'zbekistonda bank operatsion xarajatlari buxgalteriya hisobi	227
Qurbonova Sitara Vahobjon qizi	
O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirishning strategik yo'nalishlari	233
Musayev Ozodjon Shavkat o'g'li	
Пути обеспечения стабильного экономического роста в условиях перехода к зелёной экономике, совершенствования государственной экономической политики и повышения эффективности внедрения принципов цикличной экономики	237
Худайбергенова Адалат Негматуллаевна, Убайдуллаев Сирожиддин Жамшидович, Файзиёва Хамида	



Кудратовна, Эшбоев Миржалол Бахромович	
O'zbekiston sanoatining iqtisodiy holatini baholash	241
Mamanazarov Oybek Shomurodovich	
Maktabgacha ta'limda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishda matematika va savod asoslarining didaktik yechimlari.....	247
Mingboyeva Guldorxon Maxmudovna	
Soliq tizimida soliq riskini baholash uslubiyoti.....	252
Nasimov Ravshanjon Azimovich	
Budjetni rejalashtirish tizimida jismoniy shaxslar daromadlari bo'yicha prognozlashni takomillashtirishning metodologik asoslari	260
Babaev Shavkat Bayramovich	
Понятие и сущность денежного потока в системе финансового управления.....	267
Машарипова Шахло Адамбаевна	
Yashil mehmonxonalarda strategik tahlil metodologiyasi	274
Rasulova Nigora Yusupovna	
Цифровая трансформация: новые возможности и современные тенденции в управлении бизнесом и инвестициями.....	279
Баратова Динора Алишеровна	
Mehmonxonalarda xizmat ko'rsatishning sifati va samaradorligini baholash.....	283
Ikromov Akbar Farxod o'g'li	
Модель внедрения open banking в Узбекистане: предложение на основе международного опыта и локальных особенностей.....	288
Камалов Шухрат Камалович, Аскарова Дилором Хожимуратовна, Баходиров Жасурбек Олёрбек ўғли, Маликов Шохрух Шокирович, Тенгелова Фарангиз Мажид кизи	
O'zbekistonda islom moliyasini joriy qilishning yo'llari	295
Ashurbayev Farrux Alisher o'g'li, Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	
AQSH tajribasiga ko'ra eksportni iqtisodiy o'sishga tasiri	299
D.E.Qarshiev	
Iqtisodiyotni tartibga solish orqali aholi farovonligini oshirishning ahamiyati	304
Berdibekov A.	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish va aholi moliyaviy savodxonligini oshirishda inklyuziv molianing ahamiyati.....	308
Latipova Shaxnoza Maxmudovna	
Problems of the financial mechanism influence for stable and inertial development of enterprises.....	313
Zaynalov Jakhongir Rasulovich, Alieva Susanna	
Tibbiyot turizmni rivojlantirish va uning salohiyatini iqtisodiy baholashning ilmiy va uslubiy asoslari	317
Vofaxojayeva Dilafruz Marufovna	
Turistik destinatsiyalar va raqamli marketing texnologiyalari orqali turizm barqarorligini transformatsiya qilish	322
Nurmuhammadxon Oppoqonov	
Kichik va o'rta biznes moliyaviy barqarorligining kambag'allikni kamaytirishdagi ahamiyati.....	327
Djamalov Xasan Numanjanovich	
Qoraqalpog'iston respublikasida turizmni rivojlantirishning tashkiliy va iqtisodiy salohiyatini baholash.....	335
Xoshimov Baxrom Baxadirovich	
O'zbekiston turizm sektorida tog' turizmining ulushi.....	343
Alimov Abduvakil Komil o'g'li	
O'zbekiston respublikasida investitsiya faoliyatini moliyaviy boshqarish va bunda xorij tajribasi.....	348
Ismailov Dilshod Anvarjonovich	



Tadbirkorlik faoliyatini samarali boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning holati.....	354
Sattarov Xayrulla Fayzullayevich	
Tadbirkorlik faoliyatida innovatsiyalarni rivojlantirish strategiyasini tanlash va asoslash	358
Shakirova Madinaxon Gafurdjanovna	
O'zbekistonning xalqaro valyuta-moliya tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlik aloqalarini mustahkamlash yo'nalishlari.....	362
Gulmurodova Marjona Olimjon qizi, Turg'unova Zohida Shavkat qizi, Umida Yuldasheva	
Jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortish tartibini takomillashtirish.....	367
Bobomurotova Manzura Panji qizi	
Aksiyadorlik jamiyatlari va qimmatli qog'ozlar bozori o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar	372
Berdaliyev Javohir Jahongir o'g'li	
Farg'ona viloyati mahallalarida tadbirkorlikni va hunarmadchilikni rivojlanishi holati tahlili	379
Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich	
Проблемы охраны окружающей среды и формирования «зеленой экономики»	389
Ёдгорова Мухайё Шухратовна, Иминова Наргиза Акрамовна	
The evolution of passenger transport in uzbekistan and its impact on economic growth.....	392
Naubetova Ziyada Niyet kizi	
Davlat tibbiyot tashkilotlarida ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish xarajatlarining hisobi.....	397
Kuliboev Azamat Shonazarovich	
Jahon sug'urta amaliyotining O'zbekiston sug'urta bozorining rivojlanishiga ta'siri	402
Kuvatova Dinara Anvarovna	
Milliy iqtisodiyotda xorijiy investitsiyalarning ahamiyati va ta'sir mexanizmlari	406
Abdullayev Zoxid Xolxo'jayevich	
Xaridorlar bilan hisob-kitoblar auditida moliyaviy tahlil usullarini qo'llash xususiyatlari.....	411
Sagimbaev Sultanbek Turdibay o'g'li, Sultamuratov Qallibek	
The function and value of commercial banks in fostering capital market growth	416
Isakov Janabay Yakipbaevich	
Raqamli texnologiyalarning korxonalar risk boshqaruvidagi rolini swot tahlili orqali tadqiq etishning ahamiyati	427
Tojimatov Izzatbek Ikromali o'g'li	
Germaniyaning deutsche banki va buyuk britaniyaning barclays banki xizmatlar amaliyoti va uni o'zbekiston bank tizimi faoliyatiga qo'llash yo'llari	432
Raxmatov Temur Sotiboldiyevich	
The state and development trends of business process auditing in joint-stock companies in uzbekistan.....	439
Utegenova Sarbinaz Turdimuratovna	
Mamlaktimizda amaldagi budjetlararo munosabatlarning tartibi hisobi, hamda uning ahamiyati	444
Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li, Saydullayeva Zeboxon Shukrilla qizi	
Qurilish materiallari sanoatida innovatsion klasterlarni boshqarishni takomillashtirish	462
Xaydarova E'zoza Shukurullayevna, Li Zin Bo	
Barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyotning mamlakatimizda so'nggi yillardagi oshib borayotgan ahamiyati	467
Bahodirova Mohigul	
Conceptual framework for boosting the financial and economic performance of investment projects in industrial enterprises.....	472
Sarriev Kahraman Ramatullaevich	
Bandlik va ayollar tadbirkorligi	477
Ibodullayeva M.S.	



Mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotini ekonometrik prognozlash	482
A'zamov Musurmon Axmadovich, Islomov Javohir	
Ekspost siyosatini tadbirkorlik faoliyati rivojlanishiga ta'siri	488
Suvonov Ibrohim Izbosarovich, Abdug'aniyev Murodjon Shavkat o'g'li	
Aholini ish bilan ta'minlashda qishloq aholisini mehnat salohiyatidan foydalanish.....	492
Noiba Qodirova Maxmud qizi	
Yashirin iqtisodiyotni kamaytirishda rasmiy bandlik va moliyaviy munosabatlarni rivojlantirish	497
Xalimbetov Farxad Bagibekovich, Reyimberdiyev Baburbek Adilbek o'g'li	
Analysis of touristic potential and capacity of ecotourism sites	501
Abdurakhmanova Akida Faizulla kizi	
Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalarni moliyalashtirishni takomillashtirish.....	509
Salohiddinov Jaloliddin	
Infratuzilma va bozor infratuzilmasi tushunchalarining nazariy tavsifi	516
G'aniyev Botir Baxtiyorovich	
O'zbekiston va xorijiy davlatlarda aksiyadorlik jamiyatlarining qimmatli qog'ozlar orqali kapital yig'ish strategiyalari	520
Dilnozaxon Muxitdinova	
Iqtisodiy inqiroz paytida korxonalarda likvidlilikni boshqarish strategiyalari	527
Abdusalomova Nodira Bakhodirovna, Jabborova Sevinch Xusanovna	



IQTISODIY INQIROZ PAYTIDA KORXONALARDA LIKVIDLILIKNI BOSHQARISH STRATEGIYALARI

Abdusalomova Nodira Bakhodirovna

TDIU "Buxgalteriya hisobi" kafedrası mudiri i.f.d., professor

ORCID: 0000-0001-5958-6964

Jabborova Sevinch Xusanovna

TDIU, talaba

ORCID: 0009-0001-8916-4356

Annotatsiya: Ushbu maqolada iqtisodiy inqiroz sharoitida korxonalarda likvidlilikni ta'minlash va uni samarali boshqarishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Xususan, inqiroz davrida moliyaviy barqarorlikni saqlab qolishda pul oqimlarini optimallashtirish, xarajatlarni kamaytirish, moliyaviy zaxiralarni shakllantirish hamda risklarni oldindan baholash kabi strategik yondashuvlarning ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, xorijiy korxonalar tajribasiga asoslangan amaliy tavsiyalar ham berilgan.

Kalit so'zlar: Likvidlilik, iqtisodiy inqiroz, moliyaviy boshqaruv, pul oqimi, risklarni boshqarish, xarajatlarni optimallashtirish, barqarorlik, korxona strategiyasi.

Abstract: The article examines the theoretical and practical aspects of ensuring enterprise liquidity and its effective management under economic crisis conditions. In particular, it analyzes the importance of strategic approaches such as cash flow optimization, cost reduction, formation of financial reserves, and risk assessment in maintaining financial stability during a crisis. The article also provides practical recommendations based on the experience of foreign enterprises.

Key words: Liquidity, economic crisis, financial management, cash flow, risk management, cost optimization, stability, enterprise strategy.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты обеспечения ликвидности предприятий и ее эффективного управления в условиях экономического кризиса. В частности, анализируется значение таких стратегических подходов, как оптимизация денежных потоков, сокращение издержек, формирование финансовых резервов, оценка рисков в поддержании финансовой устойчивости в условиях кризиса. Также даются практические рекомендации, основанные на опыте зарубежных предприятий.

Ключевые слова: Ликвидность, экономический кризис, финансовый менеджмент, денежный поток, управление рисками, оптимизация затрат, устойчивость, стратегия предприятия.

KIRISH

Hozirgi global iqtisodiy muhit yuqori darajadagi o'zgaruvchanlik va beqarorlik bilan tavsiflanadi. Geosiyosiy ziddiyatlar, pandemiyalar, iqlimdagi keskin o'zgarishlar, shuningdek, moliyaviy bozorlardagi tebranishlar turli miqyosdagi xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holatiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, kichik va o'rta biznes vakillari bunday global salbiy omillarga nisbatan ancha ta'sirchan bo'lib, ularning moliyaviy chidamliligi cheklangan resurslar, zaxiralarning yetishmasligi va tashqi moliyaviy yordamga bo'lgan yuqori qaramlik bilan belgilanadi.

Jahon banki tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, kichik ishlab chiqarish korxonalar pandemiya davrida o'rtacha 53–59 kun davomida o'z xarajatlarini qoplay olgan, yirik korxonalar esa bu borada 65 kunlik moliyaviy imkoniyatga ega bo'lgan [1]. Bu esa iqtisodiy muhitdagi beqarorlik hech bir subyektni chetlab o'tmasligini, xususan, likvid vositalarga ega bo'lish har qanday korxona uchun strategik ustuvorlik kasb etishini ko'rsatadi. Inqiroz sharoitida nafaqat daromadlar keskin kamayadi, balki tashqi moliyaviy manbalarga kirish imkoniyati ham sezilarli darajada cheklanadi. Shunday sharoitda ishlab chiqaruvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligini saqlab qolishda likvidlikni boshqarish muhim rol o'ynaydi.

Umuman olganda, har qanday hajmdagi xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy va moliyaviy barqarorligi mamlakat makroiqtisodiy holatining asosiy drayverlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda ayniqsa yirik korxonalar muhim o'rin tutadi. Ularning kapital bazasi, moliyaviy imkoniyatlari va diversifikatsiyalangan faoliyati iqtisodiy inqirozga bardosh berish qobiliyatini oshiradi. Ular inqiroz davrida tez bankrotlikka uchramay, xarajatlarni



optimallashtirish, bozor talabiga moslashish, yangi imkoniyatlardan foydalanish orqali o'z pozitsiyasini mustahkamlashga harakat qiladi.

Biroq kichik va o'rta biznes subyektlari bu borada nisbatan zaif hisoblanadi. Ular yetarli moliyaviy zaxiralarga ega emasligi sababli ko'p hollarda inqiroz bosimiga bardosh bera olmay, bozorni tark etishga majbur bo'ladi. Bu esa ishsizlikning ortishi, soliqliq tushumlarining kamayishi va iqtisodiy muvozanatning buzilishiga olib keladi. Shu boisdan, iqtisodiy siyosatda har ikki qatlam – yirik va kichik biznesning barqaror faoliyatini ta'minlash muhim strategik yo'nalishdir.

Kichik va o'rta biznes subyektlari nafaqat inqiroz vaqtida, balki barqaror iqtisodiy sharoitlarda ham muntazam qo'llab-quvvatlanishi lozim. Sababi, ularning faoliyati iqtisodiyotda bandlik, innovatsiya va raqobatni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Shu nuqtai nazardan, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar kichik biznesga doimiy tayanch bo'lib xizmat qilmoqda. Xususan, Vazirlar Mahkamasining "Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash" kompleks dasturini amalga oshirish to'g'risidagi qarori ushbu qatlamning iqtisodiy tizimdagi barqaror o'rnini mustahkamlashga qaratilgan siyosatning amaliy ifodasidir [2].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, inqiroz sharoitida har qanday ishlab chiqaruvchi korxona uchun likvidlikni to'g'ri boshqarish nafaqat faoliyatni davom ettirish, balki iqtisodiy o'sishga hissa qo'shish uchun ham muhim omil hisoblanadi. Shunday ekan, likvidlikni ta'minlash va moliyaviy moslashuvchanlikni oshirish har qanday xo'jalik yurituvchi subyektning ustuvor strategiyasiga aylanishi zarur.

MAVZUGA OID ADBIYOTLAR SHARHI

Korxonalarda likvidlikni boshqarish masalasi iqtisodiy fanlarda muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur mavzu bo'yicha ko'plab mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqotlarida likvidlik tushunchasi, uni ta'minlash usullari hamda inqiroz sharoitida moliyaviy barqarorlikni saqlab qolish strategiyalari chuqur o'rganilgan.

Xususan, R. Soliyev va A. Toshpulatovlarning "Korxona moliyasini boshqarish" nomli qo'llanmasida likvidlikning turlari, ularni aniqlash ko'rsatkichlari va korxona pul oqimlarini boshqarish mexanizmlari yoritilgan. Mualliflar inqiroz sharoitida likvid vositalarning yetarli bo'lishi korxonaning to'lovga qobiliyatligini saqlab qolishdagi asosiy omil ekanligini ta'kidlaydilar.

Shuningdek, xorijiy adabiyotlardan P. Rose va S. Hudgins tomonidan yozilgan "Bank Management and Financial Services" asarida moliyaviy institutlar misolida likvidlik xavfini boshqarish usullari va moliyaviy ehtiyojlarning shakllantirilishi batafsil tahlil qilingan. Ushbu manbada risklarni boshqarishning zamonaviy yondashuvlari, jumladan, stress-testlar va ssenariy tahlili metodlari haqida amaliy tavsiyalar berilgan [4].

Yana bir muhim manba sifatida Xalqaro Valyuta Jamg'armasi va Jahon banki tomonidan tayyorlangan moliyaviy barqarorlikka oid hisobotlar keltiriladi. Ularning tadqiqotlarida turli mamlakatlar tajribasi asosida inqirozga qarshi moliyaviy choralar va likvidlikni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari ko'rsatib o'tilgan [5] [6].

Shuningdek yurtimizdagi vaziyat statistik tahlil qilinib, Markaziy bank va Iqtisodiy tadqiqotlar markazi hisobotlarida ishlab chiqarish korxonalarida aylanma mablag'lar tanqisligi, kechiktirilgan to'lovlar va kapital aylanishining sekinligi likvidlikka salbiy ta'sir ko'rsatayotgani ta'kidlanadi. Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida korxonalarga xarajatlarni optimallashtirish, zaxiraviy mablag'larni shakllantirish hamda davlat kafolati ostidagi moliyaviy vositalardan samarali foydalanish tavsiya etiladi [7] [8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu ilmiy tadqiqot ishida iqtisodiy inqiroz sharoitida ishlab chiqaruvchi korxonalarda likvidlikni boshqarish bo'yicha mavjud nazariy yondashuvlar va amaliy tajribalarni o'rganish maqsadida bir qator ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi. Xususan, tizimli tahlil, ilmiy mushohada, sintezlash, induksiya va deduksiya, empirik baholash, statistik ma'lumotlarni guruhlash, solishtirma tahlil, prognozlash hamda ilmiy abstraksiyalash usullaridan keng foydalanildi.

Tadqiqot jarayonida xorijiy korxonalar tajribasi asosida inqiroz davrida likvidlikni saqlab qolish uchun qo'llanilgan strategik choralar tahlil qilindi. Shuningdek, mahalliy korxonalar faoliyatiga oid ochiq manbalar va iqtisodiy hisobotlar asosida moliyaviy barqarorlikni saqlashda pul oqimlarini boshqarish, xarajatlarni optimallashtirish va risklarni baholash kabi yondashuvlar o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiy inqiroz sharoitida har qanday ishlab chiqaruvchi korxona uchun likvidlikni saqlab qolish muhim strategik masalaga aylanadi. Likvidlik — bu korxonaning o'zining qisqa muddatli moliyaviy majburiyatlarini vaqtida bajarish qobiliyatidir. Inqiroz paytida aynan shu qobiliyat zaiflashadi. Bu jarayon turli omillar orqali



yuzaga keladi: sotuv hajmining keskin pasayishi, xaridorlar to'lovga qodir bo'lmashligi, xomashyo narxining o'zgarishi, banklar tomonidan kreditlashning kamaytirilishi va valyuta bozoridagi beqarorlik.

Birinchidan, inqiroz korxonalarining asosiy moliyaviy oqimini buzadi. Bu esa o'z navbatida ishlab chiqarishning to'xtashiga, ishchilar sonining qisqarishiga, yetkazib beruvchilar bilan hisob-kitobning kechikishiga olib keladi. Masalan, Xitoy avtomobil sanoatida yuzlab kichik yetkazib beruvchilar BYD va Geely kabi yirik kompaniyalardan oylab to'lov ololmagan holatlar qayd etilgan. Financial Times'ning 2024-yilgi ma'lumotlariga ko'ra, ayrim yetkazib beruvchilarga 200 kungacha to'lov amalga oshirilmagan. Bu esa ularning ham moliyaviy barqarorligiga bevosita zarba bo'lgan[9].

Ikkinchidan, inqiroz davrida korxonalar oldida turgan asosiy muammolardan yana biri bu — ortib borayotgan qarz yuki va moliyaviy resurslarning cheklanishidir. Germaniyada, masalan, 2025-yilning birinchi choragida bankrotlikka uchragan kompaniyalar soni o'tgan yilga nisbatan 13,1% ga oshgan. Shu davrda iqtisodiy da'volar qiymati 19,9 milliard yevroga yetgan [10]. Bu raqamlar nafaqat likvidlik inqirozining kuchli bosimini, balki korxonalarning mavjud moliyaviy zaxiralari yetarli emasligini ham ko'rsatadi.

Uchinchidan, moliyaviy institutlar tomonidan moliyalashtirish imkoniyatlarining qisqarishi ham likvidlik muammosini kuchaytiradi. O'zbekiston misolida qaraydigan bo'lsak, 2023-yilda banklarning likvidlik qoplovi 160% atrofida bo'lgan. Bu yaxshi ko'rsatkich bo'lsa-da, inqiroz paytida korxonalar uchun kredit olish imkoniyatlari cheklanishi mumkin, chunki banklar risklarni kamaytirish maqsadida kreditlash siyosatini ehtiyotkorlik bilan yuritadi. Shu bilan birga, muammoli kreditlar darajasi o'sib borayotganligi bank sektorining ishonchliligiga ham ta'sir ko'rsatadi.

To'rtinchidan, inflyatsiya va valyuta kurslarining beqarorligi, ayniqsa importga bog'liq korxonalar uchun likvidlik muammolarini keskinlashtiradi. Valyutadagi noaniqliklar natijasida, korxonalar o'z zaxira mablag'larini yo'qotadi yoki noto'g'ri rejalashtiradi. Bu holat, ayniqsa O'zbekistonning ayrim sanoat tarmoqlarida — mashinasozlik, oziq-ovqat yoki farmatsevtika sohalarida sezilarli darajada yaqqol ko'rinadi.

Shunday qilib, inqiroz davrida korxonalar oldida likvidlikni saqlab qolish uchun murakkab muammolar paydo bo'ladi. Bu muammolarni samarali boshqarish uchun korxona darajasida moliyaviy oqimlarni doimiy nazorat qilish, zaxira fondlarini shakllantirish, xarajatlarni optimallashtirish va risklarni oldindan aniqlab, ularga qarshi strategiyalar ishlab chiqish zarur bo'ladi. Inqiroz — bu muammo bo'lishi bilan birga, imkoniyatlar davridir ham. Aynan shu paytda korxonalar o'z moliyaviy boshqaruvini kuchaytirishi, strategik fikrlashni rivojlantirishi va barqarorlikka intiluvchi samarali modelga o'tishi mumkin. Inqiroz davrida har bir so'mning ahamiyati ortadi. Shu sababli ko'plab korxonalar o'z xarajatlarini qayta ko'rib chiqib, keraksiz yoki daromadga bevosita ta'sir qilmaydigan faoliyat turlarini vaqtincha to'xtatadi yoki qisqartiradi. Masalan, reklama byudjetlari, xizmat safarlari yoki tashqi maslahat xizmatlariga sarflanadigan mablag'lar kesiladi.

Shuningdek, kredit liniyalari bilan oldindan kelishuv tuzish, moliyaviy sug'urta va grant resurslarini jalb etish ham zaxira shakllantirishning zamonaviy usullariga kiradi.

2008-yilgi moliyaviy inqirozdan so'ng ko'plab kompaniyalar favqulodda budjetlarni shakllantirish, xarajatlarni tezkor tarzda ko'rib chiqish va haftalik asosda pul harakatini kuzatish kabi yondashuvlarni joriy etdilar. Masalan, Walmart kompaniyasi likvidlikni real vaqt rejimida tahlil qilish tizimi orqali har bir moliyaviy qarorning barqarorlikka ta'sirini baholaydi. Bu orqali kompaniya inqiroz sharoitida ham kreditga kam ehtiyoj sezadi, moliyaviy mustaqilligini saqlab qoladi.

Shu bilan birga, Germaniya hukumati tomonidan taqdim etilgan "KfW" kredit liniyalari inqiroz vaqtida o'rta va kichik biznes uchun muhim moliyaviy zaxira vazifasini bajargan.

Janubiy Koreya tajribasi inqirozga qarshi kurashishda raqamli transformatsiya va moliyaviy texnologiyalardan keng foydalanishni ko'zda tutadi. Mamlakatdagi yirik kompaniyalar — masalan, Samsung — moliyaviy jarayonlarni avtomatlashtirish, xarajatlar tahlilini raqamlashtirish, tezkor qaror qabul qilish tizimlarini joriy etgan. Shu bilan birga, hukumat tomonidan kichik korxonalar uchun ishlab chiqilgan "Emergency Fund + Digital Transition" dasturi raqamli savdoga o'tish, onlayn hisobot yuritish va pul oqimlarini elektron nazorat qilishni yo'lga qo'ygan. Bu yondashuv kichik biznesga yangi bozor segmentlariga chiqish imkonini bergan.

Rivojlangan davlatlar tajribasi — xususan, AQSH, Germaniya va Janubiy Koreya korxonalari tomonidan qo'llanilayotgan strategiyalar — O'zbekiston tadbirkorlik subyektlari uchun ham samarali yo'nalishlar bo'lib xizmat qilishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilardan kelib chiqib, inqiroz sharoitida har qanday ishlab chiqaruvchi korxona uchun likvidlik darajasini saqlab qolish nihoyatda muhim hisoblanadi. Ayniqsa, iqtisodiy beqarorlik, talabning pasayishi, narxlarning o'zgaruvchanligi va moliyaviy resurslarga kirishning cheklanishi kabi omillar kuchaygan davrlarda, korxonaning moliyaviy barqarorligini saqlab qolish bevosita uning likvidligiga bog'liq bo'ladi. Ishlab chiqaruvchi korxonalar ko'pincha katta miqdordagi xomashyo, uskunalar va ishchi kuchiga tayanadi. Bunday sharoitda



mablag'larning to'g'ri taqsimlanmasligi yoki pul oqimlarining izdan chiqishi, butun ishlab chiqarish jarayonining to'xtashiga olib kelishi mumkin. Shu sababli inqiroz davrida korxonalar nafaqat daromad olish, balki mavjud moliyaviy resurslarni saqlab qolish, ularni samarali boshqarish va xavflarni minimallashtirishga ham alohida e'tibor qaratishi lozim. Shundan kelib chiqib korxonalarda joriy etilishi kerak bo'lgan ayrim strategiyalar quyidagilarni tashkil etadi:

Pul oqimlarini optimallashtirish.

Debitor qarzlarni qisqartirish: to'lov muddati ortib ketgan mijozlar bilan ishlash tartiblarini kuchaytirish, muddatli chegirmalar (diskontlar) orqali erta to'lovlarni rag'batlantirish;

Kreditorga to'lov muddatini uzaytirish: yetkazib beruvchilar bilan qayta muzokaralar olib borib, qulayroq to'lov shartlarini kelishib olish;

Budjetlashtirish va pul oqimi prognozi: har oylik kassa oqimlarini rejalashtirish, kutilmagan xarajatlar uchun limitlar belgilash;

Avtomatlashtirilgan hisob-kitob tizimlarini joriy qilish:

ERP yoki CRM kabi raqamli boshqaruv tizimlari orqali real vaqt asosida xarajatlar va tushumlarni monitoring qilish.

2. Xarajatlarni qisqartirish. Iqtisodiy inqiroz sharoitida korxonalar uchun eng maqbul strategiyalardan biri bu – xarajatlarni tizimli tahlil qilish va operatsion samaradorlikni oshirishdir. Buning uchun korxonalar, avvalo, har chorakda pul oqimlarini monitoring qilib borishi, doimiy xarajatlar (ijara, elektr energiyasi, transport, ma'muriy xizmatlar va boshqalar) bo'yicha optimallashtirish ishlarini amalga oshirishi zarur.

Shuningdek, quyidagilarga alohida e'tibor qaratilishi lozim:

Zarur bo'lmagan xarajatlarni qisqartirish: xizmat safarlari, ortiqcha inventar, marketing kampaniyalari yoki ijtimoiy tadbirlar uchun rejalashtirilgan, ammo hozirgi sharoitda samarasi past bo'lgan xarajatlarni vaqtincha to'xtatish.

Faoliyatni avtomatlashtirish: mehnat va vaqt resurslarini tejash maqsadida texnologik yechimlardan foydalanish.

Mavjud aktivlardan maksimal foydalanish: mavjud ishlab chiqarish quvvatlari, uskunalar va ombor resurslarini samarali boshqarish orqali yangi investitsiyalarni kechiktirish.

Bunday yondashuvlar nafaqat likvidlikni saqlab qolishda, balki inqirozdan keyingi tiklanish davrida korxonaning moliyaviy holatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

3. Moliyaviy zaxiralarni shakllantirish amaliyoti. Inqiroz paytida korxonalarning mavjud mablag'lari yetishmasligi mumkin. Shu boisdan, oldindan moliyaviy zaxira fondlarini shakllantirish va ularni oqilona boshqarish muhim ahamiyatga ega. Korxonalar quyidagilarni amalga oshirishlari lozim:

Favqulodda holatlar fondi tuzish: daromadning ma'lum foizini har oy chetga ajratib borish orqali moliyaviy "yostiqcha" hosil qilish;

Qisqa muddatli depozitlar yoki tez likvidlanuvchi aktivlarga sarmoya kiritish;

Zaxira fondlarini turli valyutalarda saqlash orqali valutaviy tavakkalchilikni kamaytirish.

4. Risklarni boshqarish. Bundan tashqari, risklarni boshqarish tizimini kuchaytirish, bozorning real holatini o'rganib strategik qarorlar qabul qilish ham korxona likvidligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shunday qilib, iqtisodiy inqiroz sharoitida korxonalar o'z faoliyatining davomiyligini saqlab qolish va barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun likvidlikni samarali boshqarishga alohida e'tibor qaratishlari lozim. Bu esa nafaqat korxonaning moliyaviy omon qolishini, balki uzoq muddatli muvaffaqiyatini ham belgilab beradi. Buning uchun korxonalar quyidagi choralarni amalga oshirishlari zarur:

Bozor tahlilini muntazam olib borish: talab va taklifdagi o'zgarishlar, narxlarning tebranishi, raqobatchilar harakatlari kabi omillarni tizimli ravishda o'rganish orqali tezkor va moslashuvchan qarorlar qabul qilish.

Stress-testlar va ssenariy tahlilini joriy etish: turli noaniqlik sharoitlarini modellash orqali korxona moliyaviy holatiga potentsial ta'sirlarni baholash va shunga mos himoya choralari ishlab chiqish.

Diversifikatsiya strategiyasini ishlab chiqish: mijozlar, mahsulotlar va bozorlarga nisbatan haddan tashqari qaramlikni kamaytirish maqsadida ta'minot va savdo tarmoqlarini kengaytirish.

Sug'urta mexanizmlaridan foydalanish: xatarli aktivlar va operatsiyalarni moliyaviy himoya ostiga olish orqali kutilmagan yo'qotishlarni minimallashtirish.

Favqulodda holatlar uchun harakat rejasi ishlab chiqish: ta'minot zanjiridagi uzilishlar, kadrlar yetishmovchiligi yoki moliyaviy oqimdagi uzilishlarga tayyor turish uchun aniq va sinovdan o'tgan rejalarning mavjudligi.

Bunday tizimli yondashuvlar korxonalarga nafaqat mavjud xatarlarni kamaytirish, balki yangi imkoniyatlarni aniqlab, ularni tezda o'zlashtirish orqali o'z likvidligini barqaror holatda ushlab turishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, korxonalar uchun iqtisodiy inqiroz sharoitida likvidlikni boshqarish — bu nafaqat moliyaviy masala, balki umumiy strategik fikrlash va tezkor qaror qabul qilish madaniyatining ifodasidir. Xarajatlarni keskinlashtirmasdan optimallashtirish, oqilona pul oqimi siyosati yuritish va zaxira fondlarini yaratish



kabi strategiyalar korxonalarning inqirozga bardosh berish salohiyatini oshiradi. Aynan ushbu yondashuvlar inqirozdan omon chiqish yo'lidagi eng samarali vositalar sirasiga kiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. World Bank. World Development Report 2022: Finance for an Equitable Recovery. – Washington, DC: World Bank Group, 2022.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash" kompleks dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Qarori. 20.01.2024y. 37-son - <https://lex.uz/docs/-6767101>
3. Soliyev R., Toshpulatov A. Korxona moliyasini boshqarish. – Toshkent: "IQTISOD-MOLIYA", 2020. – 320 b.
4. Rose P. S., Hudgins S. C. Bank Management and Financial Services. – New York: McGraw-Hill Education, 2013. – 738 p.
5. Jahon banki. Enterprise Surveys – Uzbekistan Country Profile 2023. – <https://www.enterprisesurveys.org>
6. Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF). Liquidity Management in Crisis Periods. – IMF Working Papers, 2022. – <https://www.imf.org>
7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Pul-kredit siyosati sharhi (2023-yil IV chorak) – <https://www.cbu.uz>
8. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi (CERR). O'zbekistonda korxonalarda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash muammolari va ularning yechimlari. – 2023. – <https://review.uz>
9. The Financial Times. Large firms delay payments to suppliers up to 200 days. – FT Report, 2024. – <https://www.ft.com>
10. https://www.reuters.com/world/china/germany-records-fewer-insolvencies-first-time-over-two-years-2025-06-13/?utm_source=chatgpt.com



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>